



## OLIM YETISHTIRGAN ONALAR

Ikromova Ominaxon Elmurod qizi

Andijon davlat universitetining pedagogika institute

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6859606>

**ANNOTATSIYA:** Ona! Qanday go'zal kalima. Qaysi tilda aytilmasin... Ona derkan ich-ichimizda bir huzur va muhabbat paydo bo'ladi. Ona bo'lish ossonmi? Kim ona kabi seva oladi? Kim onadek qo'riqlaydi? Eng ishongan eshiklaringiz siz uchun to'satdan yopilsa ham onaning eshigi hechqachon yopilmaydi. Ovozini balandlatishi mumkin, jaxl qilishi mumkin, balki sizga og'rirroq tuyuladigan gaplar aytishi mumkin, lekin ularning farzandlariga bo'lgan muhabbati tugamaydi. Ona shunday borliqki, har qanday mavjudot onalik hislati bilan o'sha shavqat, o'sha marhamatni olib yuradi.

**Kalit so'zlar:** Tomos Edison, Ona, Onaning o'rni, Islomda onaning o'rni, muqaddima.

Bizlarni yo'qdan bor qilgan, borligidan xabardor qilgan, olamlarning Robbisi bo'lgan Allohga xamd bo'lsin! Uning olamlarga rahmat qilib yuborgan Rasuliga salot va salomlar bo'lsin. "Tomas Edison va uning qahramon onasi" haqida o'qib qoldim va ushbu ibratli hikoyani sizga ham ilindim. Tomos Edison bir kuni maktabdan uyiga keldi va onasiga bir qog'oz uzatib, "O'qituvchim buni sizga berishimni tayinladi",- dedi. Onasi xatni ko'z yoshlari ichida o'g'liga o'qib berdi: "O'g'lingiz – daxo. Bu maktab uning uchun torlik qiladi, uni o'qitadigan qobiliyatli o'qituvchimiz yo'q. "O'g'lingizni o'zingiz o'qiting". Oradan yillar o'tib, onasi vafot etganida Tomos eng taniqli va ulug' shaxslardan biriga aylanib ulgurgan edi. Kunlardan bir kuni uydagi eski ashyolarni ko'zdan kechrarkan, bir qog'oz topib oladi. Edison uni olib o'qiydi. Qog'oz ancha yillar ilgari o'qituvchisi onasiga berib yuborgan xat bo'lib, unda: "o'g'lingiz esi past bir bola. Maktabimizda o'qishga ruxsat berolmaymiz", deb yozilgan edi. Shularni o'qigan Edison soatlarcha yig'laydi, so'ngra kundaligiga shunday yozadi: "Tomas Edison qahramon bir ona tomonidan yuz yillikning daxos holatiga keltirilgan, "Esi past bir boladir". Ona! Qanday go'zal kalima. Quroni karimda shunday bir oyat borki, shu bir gina oyatda ota-onaga qanday muomalada bo'lishimiz lozimligi mukammal suratda ko'rsatilgan: "Robbing faqat uning o'zigagina ibodat kilishingni va ota-onaga yaxshilik qilishni amr etdi. Agar huzuringda ularning birlari yoki ikkalari ham keksalikka yetsalar, bas ularga "Uff" dema,



ularga ozor berma va ularga karamli so'z ayt". Bolalarning tarbiyasida onalarning tasiri kattadir. Chunki bola ona bilan ulg'ayadi.

Alloh taollo o'ziga ibodat qilishni amr qilib, undan so'ng ota – onaga xurmatnikeltirishini dinimizda ota – onaga naqadar ikrom kilish kerakligini ko'rsatmoqda. Dunyodagi eng yaxshi inson, albatta, ona. Nega biz onamizni sevamiz? U mehribon va mehribonligi uchun, bizga tegishni va bizga achinishni bilganligi uchun, go'zal va aqlli ekanligi uchun. Onam mazali taom tayyorlashni biladi va u bilan hech qachon zerikmaydi. U ko'p narsani biladi va har doim bizga yordam beradi. Onam bizga baxt tuyg'usini beradi, biz haqimizda qayg'uradi, qiyin paytlarda bizni qo'llab-quvvatlaydi. Lekin, eng muhimi, biz uni yaxshi ko'ramiz, chunki u faqat ona. Onam dunyodagi eng aziz inson. Inson dunyoga kelishi bilanoq onasining mehribon ko'zlarini ko'radi. Agar u biror joyga ish bilan ketsa, chaqaloq uni yo'qotib, tinchlanmasdan yig'laydi. Chaqaloq tomonidan aytiladigan birinchi so'z odatda "ona" so'zidir. Ona dunyodagi eng aziz va mo'tabar zot sizni duo qilguvchi sizga uzoq umr tilovchi zot bu sizning onangizdir, lekin shunday odamlar borki, onaning qadriga yetmaydilar va yetganida kech bo'ladi. Siz kechasi uyga kelganingizda sizni uxlamay kutib o'tiradi va ikki og'iz gap aytadi "bolam keldimi" siz esa "ha onajon keldim" deyish o'rniga "e haliyam o'tiribsizmi uxlasayiz bo'lmaydimi" deb jerkib berasiz. Siz kelganizda o'sha eng sevimli xotiniz ham farzandlariz ham shirin uyquda uxlab yotadi, lekin shu shirin uyqusidan voz kechib onangiz sizni kutib o'tiradi siz esa shu uchun bir og'iz shirin so'zingizni ayaysiz. Yillar o'tib onangiz vafot etsalar onangiz yotgan uy derazasidan ming marta o'ting shu nido yangramaydi "bolam keldimi?" sizni bu gaplarim bilan qiynamoqchi emasman do'stim siz onangizga bugun ayting "yelkamda ko'tarib hajga olib boraymi?" deb bugun ayting zero ertaga bu baxt kimga nasib qiladi kimga yo'q. Ilohim barchamizning onamiz baxtimizga sog' bo'lishsin inshoolloh. Ona buyuk zotdir. Har bir oilaning tinch-totuv, barqaror, xotirjam bo'lishi, farzandlarining sog'lom va barkamol bo'lishi, oilada sog'lom muhit, sog'lom turmush tarzining mavjudligi har jihatdan bir inson zimmasiga tushadi. Mana shunday masulyatli va va sharafli vazifani chin dildan, hech nolimay boshini mag'rur ko'tarib, hayot qiyinchiliklariga ozida kuch topib, atrofdagilariga madadkor inson bu mo'tabar onalarimiz. Ona! Naqadar buyuk zot. Faqat uning farzand uchun kechalari bedor o'tkazgan, farzand kamoli uchun yelib yugurgan, oilasining tinch yashashi uchun har ishga tayyor,



atrofdagilarga beminnat mehr bergan betakror zot. Ona! Hayot saboqlarini beruvchi, jonkuyar mehribon zot. Katta-yu kichikka doimo birday yordam bera oladigan, doimo tog'ri yo'l korsata oladigan murabbiy. Oilada hammani ko'ngliga yol topadigan mehribon ona. Yurt koriga yaraydigan farzandlarni kamolga yetkazayotgan volida, aziz insonni qo'llab quvatlaydigan sevimli rafiq. O'zi ona bo'lsada, bir daqiqa ham farzand ekanligini unutmay doimo ota-ona xizmatiga shay turgan inson balki uning buyukligi ham shundadur balki shuning uchun ham barchamiz unung oldida doimo ta'zimdadirmiz. Onalarning hayotimizdagi ahamiyati. Birinchidan, onalar o'ta mas'uliyatli shaxslar. Ular bola tarbiyasida juda muhim rol o'ynaydi, bolaning kelajakda yaxshi yoki yomon bo'lishi onaga bog'liq. Shaxsan mening hayotimda onam o'rgatgan axloqiy qadriyatlar juda katta rol o'ynaydi. Odamlar ko'pincha qariganlarida ham o'z onalarini eslaydilar. Ona jamiyat farovonligi uchun ham javobgardir. Jamiyatning kelajagi ko'p jihatdan onaning ta'limoti natijasidir. Onalar farzandlari uchun eng yaqin do'st bo'lishadi. Albatta, bunday oqibatni boshqa hech narsa bilan tenglashtirib bo'lmaydi. Hatto otalar ham bunday aloqa o'rnatolmaydilar. Bu rishta bolalikdan boshlanadi. Shunisi e'tiborliki, ona bolasini gap-so'zsiz tushunishi ham mumkin. Onalar umuman oilaning hissiy tayanchidir. Oila a'zolari, albatta, onalarga o'z his-tuyg'ularini tashvishlanmasdan aytib berishlari mumkin. Odam deyarli har qanday sirini onasi bilan bo'lishishi mumkin. Buning sababi shundaki, onalar o'z oilalariga katta ishonch bildirishadi. Bundan tashqari, onalar juda kechirimli tabiatga ega. Shu sababli har qanday hatolikka yo'l qo'yilsa ham onalar bilan qo'rqmasdan bo'lishish mumkin. Onalarimizga yordam beraylik. Onasiz hayot, albatta, qorong'i va ma'yus bo'lar edi. Shuning uchun onalarimizga yordam berish va ularni qo'llab-quvvatlash bizning burchimizdir. Buning muhim usullaridan biri dastavval bu uy ishlarida yordam berishdir. Biz ko'proq uy ishlarini bajarishga harakat qilishimiz kerak. Bu, albatta, onalarimizga tushadigan yukni kamaytiradi. Onalarimizda esa o'z salomatliklari haqida qayg'urishga va dam olishga biroz bo'lsa-da vaqt topiladi. Onalarni qo'llab-quvvatlashning yana bir usuli - bu rahmat so'zlarini aytish. Ular bajaradigan eng og'ir kasbdagidan zarracha ham qolishmaydi. Onaning yuragi oltindan yaratilgan bo'lsa ajabmas. Bir necha oddiy so'zlar ularning qalbini baxtga to'ldiradi. Hech bo'lmaganda onamiz tayyorlagan nonushta yoki kechki ovqatni maqtash. Bunday e'tirof muntazam ravishda bo'lishi kerak. Ona har bir inson hayotidagi qimmatbaho toshdir. U bola uchun baxtning asosiy manbai. Albatta, uning hissalarini tasavvur qilish



uchun juda katta. Eng muhimi, uning sevgisi asl va pokdir. O'z farzandini chin qalbidan yaxshi ko'rmaydigan onani topish, ehtimol, imkonsiz vazifadir. Haqiqatan ham, ona bu buyuk zot. Men ularni yerdagi farishtalarga qiyoslashim keladi. 1-Prezidentimiz Islom Karimov Konstitutsiyamiz qabul qilinganligining 23 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqida ta'kidlanganidek, "Ayollarga sharqona ehtirom ko'rsatish – biz uchun ota-bobolarimizdan qolgan ibratli meros bo'lib, biz bunday an'analarga sodiq bo'lib yashaymiz. Biz mustaqillikka erishganimizdan so'ng, sog'lom va barkamol avlodni voyaga yetkazish, birinchi navbatda, oila, onalik va bolalikni himoya qilish masalasini o'zimiz uchun eng muhim, ustivor vazifa sifatida belgilab oldik. Bu borada zarur huquqiy-me'yoriy bazani takomillashtirish, millat genofondini yaxshilash, aholining hayot darajasi va sifatini oshirish borasida qanday ulkan ishlar amalga oshirganimiz barchamizga yaxshi ma'lum, albatta". Muhtaram yurtboshimizning joriy yilni "Sog'lom ona va bola yili" deya e'tirof etishlari ham ayollarimizga, ham yurt poydevori sanalmish yoshlarga qanday e'tibor berilayotganidan darak. Zero, Vatanning gullab yashnashi avvalo farzand tarbiyachisi bo'lmish onalarimiz zimmasidadir. Hozirda ayollarimiz nafaqat uy bekasi, balki, jamiyatda o'z o'rniga ega pedagog, shifokor, rahbar, deputat, olim, shoir, hamdirlar. Bu esa barchamizning baxtimizdir.

Ayol... Ona... Ona allasi... Ona mehri... Ayol deganda avvalombor, har bir insonning ko'z o'ngida: mehribon, bag'rikeng, oq sut berib voyaga yetkazadigan mo'tabar zot-Ona siymosi namoyon bo'ladi. Insoniyat bahori, avlodlar davomiyligi, sarchashmasi ham Ona. U naqadar mushfiq, muqaddas, o'z dilbandi uchun jonkuyar, mehribondir... Ona mehri shu qadar kuchliki, dunyodagi jamiiki go'zal kuy va navolar birlashsa ham, uning kuylagan allasi kabi quvonchli va g'amli bo'la olmaydi... Ona muqddas, mo'tabar, farzandini jondan suyguvchi zotdir. Onajonlarimiz o'z dilbandlarini bir parcha etligidan asrab-avaylab katta qiladi. U og'rinsa, ming o'lib, ming tiriladi. Tunlari yig'lab, bedor bo'lib, mijja qoqmaydi. Farzandi oyog'iga tikan kirs, kipriklari bilan olishga, uning uchun jon fido qilishga ham tayyordirlar. Onajonlarimiz biz uchun naqadar aziz va qadrlil. Shuning uchun ularni asrab-avaylaylik, ko'klarga ko'tarishimiz, farzandlik burchimizni ado etishimiz, biz uchun ham farz, ham qarzdirl!

Yangi 2016-yilni "Sog'lom ona va bola" yili deb e'lon qilingani hammamizga ma'lum albatta. Shunday ekan, jamiyatimizga sog'lom va har taraflama yetuk avlod darkor. Sog'lom





avlodni esa sog'lom bo'lgan onagina dunyoga keltirib, voyaga yetkazishi mumkin. Onalik bu ham baxt, ham mas'uliyat demakdir. Onalar farzand tarbiyasida hamisha oilada muhim o'rin tutganlar. Bola tug'ilishidan oldin, hatto juft tanlanayotgan vaqtdayoq bo'lajak onaga e'tibor qaratiladi. Farzand tug'ilgandan keyin ham otasi ish yo boshqa sabablar bilan ko'p vaqt uyda bo'lmaydi, tarbiyaga doir zarur o'g'itlar, ko'rsatmalar bergan holda, asosiy ishi moddiy ta'minot bo'lib qolaveradi. Illo, ona soliha, ilmi bo'lsa, farzandi kelajakda buyuk inson bo'lib yetishishi uchun astoydil harakat qiladi. Agar «Nega farzand tarbiyasi yolg'iz mening zimmamda bo'lar ekan?!» deya u ham tarbiya bilan shug'ullanmasa, nafaqat bir bolaning, balki butun boshli millatning kelajagini barbod qiladi. Ona! Bu tabarruk so'zni aytish yoki eshitish bilan yuragimizda bexosdan cheksiz mehr paydo bo'ladi. Va har safar vujudimizda onaning munis va mehribon siyosi aks eta boshlaydi. Tomirlarimizda samimiyat va yaxshilik daryoday jo'sh uradi. Ona, deyish bilan tilimiz ham, dilimiz ham beqiyos insoniy mehr-muhabbatga, ezgulikka to'lib-toshib boraveradi, boraveradi... Bolaligimizda, aniqrog'i esimizni taniy boshlagan kezlarda bizga; "Onangni yaxshi ko'rasanmi yoki otangni yaxshi ko'rasanmi", deb paydar-pay savol berishadi. Va tabiiyki, ko'pchilik, "onamni", deb javob beradi. Bu aslo otamni yomon ko'raman, degani emas. Aksincha, bu onaga bo'lgan mehr-muhabbatning yuksak ramzi, onaga bo'lgan samimiyatning bebaho izhori ekanligini otalarimiz ham tushunadi. Onalarimizni yaxshi ko'rishimiz, ardog'lashimiz va xurmat qilishimiz otalarimizga hech mahal og'ir botmaydi. Chunki, otalarimizning ham onalari bor. Ular ham o'z onalarini bizday qadrlab, bizday yaxshi ko'rib biz kabi xurmat qilishiga ishonamiz. Onani e'zozlash, qadr-qimmatini o'rniga qo'yib, boshga toj kabi ko'tarish bizlarga ota-bobolardan meros. Mashhur qo'shiqda aytilganidek: "Bu olamda ulug' zot kim, desang, doim onam derman". Ona ulug' zot bo'lish bilan birga, o'zida hayratli mo'jizalarni mujassam etgan sir-sinoatlarga boy inson. Masalan, go'dak chinqirib yig'layapti. Uni atrofida qancha harakat qilmasin tinchlantirmayaptilar. Bola na aldovga, na do'qqa ko'nadi. Yumushlardan bo'shagan onasi uni darhol bag'riga bosadi. Go'dak ona isini olishi bilan tinchiydi. Yana bir holat: bola kasal, issig'i baland, bir ahvolda yotibdi. Unga doktorning dori-darmonlari ham unchalik kor qilmayapti. Shunda ona alahsirayotgan farzandining peshonasiga mehr bilan haroratli kaftini qo'yadi. Bir pastdan so'ng bola orom ola boshlaydi. Ona bilan bog'liq bunday hayratli misollarni ko'plab keltirish mumkin. Ona shu qadar ulug' va qudratli zotki, u ko'zga ko'rinmas ulkan kuch bilan,



mehr-muhabbat bilan faqat farzandlarini, yaqinlarini emas, balki butun boshli insoniyatni bag'riga bosib, dardiga darmon bo'la oladi. Ona hamisha o'zida beqiyos kuch-qudrat topoladigan noyob qudrat egasi. Yana bir gap: jafokash tarix sahifalaridan yaxshi bilamizki, onalar eng og'ir va qiyin davrlarda ham, qatag'on va qahatchilik yillaridan ham metin irodali va mehribon, jasoratli va samimiy, dovyurak va mehnatkash bo'lib, avvalo, jonidan ham aziz farzandlarini, tug'ilib o'sgan Vatanini asrab qolish uchun hayotini fido qilishdan aslo qaytmaganlar. Onalar qatag'onlardan qo'rqmaganlar, tuhmatlardan aslo cho'chimaganlar. Farzandlar esa onalarning jasorati va mardona nigohlaridan kuch-quvvat olganlar, botir bo'lganlar... Bunday ulug' onalar xotirasi oldida bosh egib, ularning ruhlariga hamisha duolar qilish insoniy burchimizdir. Odam bolasi ona tufayli bu yorug' jahonni ko'rish baxtiga muyassar va musharraf bo'ladi. Ona tufayli bu hayotning barcha lazzatlaridan bahramand bo'ladi. Ona tufayli dunyoning zavq-shavqiga, quvonchlariga ko'milib yuradi. Ona tufayli baxt-iqbolga erishadi. Ona tufayli umrini yaxshiliklarga, ezguliklarga, fidoyi ishlarga safarbar etadi. Ona tufayli umrini yaxshi va ezgu amallar bilan bezaydi. Har bir farzand, xoh u o'g'il bo'lsin, xoh u qiz bo'lsin eng avvalo, onasini rozi qilishga intiladi. Onasi oldidagi qarzni uzishni sharafli burchi, deb biladi. Ona baxti – farzandlar baxti, oila baxti, jamiyat baxti. Ona bu bebaho baxtni hech kimga, hech nimaga alishmaydi. Ba'zan onani umri uzoq va metinday mustahkam daraxtlarga qiyoslashadi. Yoki ona irodasini ulkan tog'larga, ona mehrini daryolari-u ummonlarga o'xshatishadi. Bu o'xshatishlarning barchasi haqiqat. Go'yo eng yoshi ulug' daraxtlar ham onalar umriga taqlid qiladilar. Tog'lar ham aslida o'z irodalarini onalarga qarab chamalaydilar. Daryo-yu dengizlar mehr-muhabbatda onalarga teng kelish-kelmasligi haqida bahs yuritadilar. Tabiat onalar bilan hisoblashadi, onalar bilan maslahatlashadi, onalar bilan birga qadam tashlaydi. O'atto tabiat ham onaizorga ozor bergisi kelmaydi. Tabiat mehr ko'rsatishda, mehribon bo'lishda onalardan ibrat oladi. Shu bois uni ona-tabiat deymiz. Dunyoda qancha millat bo'lsa uning shuncha onasi bor. Har bir millat farzandi o'z onasini yaxshi ko'rmasligi, qadrlamasligi va hurmat qilmasligi aslo mumkin emas. Ona Afrikada ham, Amerika va Hindistonda ham, Osiyo, Yevropa va Antarktidada ham ona. Ona ulug' va bebaho zot sifatida har joyda, har mamlakat va millatda beqiyos darajada e'zozlanadi. Rang-ro'yidan, urf-odatidan, turmush-tarzidan qat'iy nazar ona ulug' zotligicha qoladi. Jumladan, biz, o'zbeklarda ham. Onamiz, onajonimiz, porlab turgan quyoshimiz, to'lin oyimiz, charaqlab turgan yulduzimiz. U bizning – jonajonimiz... Dunyo xalqlari



ichida onalarni sevis, qadrlash va ulug'lash borasida o'zbeklar hamisha eng oldingi saflarda borayotgani, boshqa millatlarga o'rnak bo'layotgani kishiga faxr va iftixor bag'ishlaydi. Bu ajoyib va bebaho fazilatimiz bilan har qancha g'ururlansak, faxrlansak arziydi. Bizday onani boshiga ko'taradigan va onaday ulug' zotning hurmatini joyiga qo'yadigan millat kam topilsa kerak, ehtimol biz kabi onaparast xalqlar barmoq bilan sanarlidir... Mustaqillik davri nafaqat Vatanga, insonga bo'lgan munosabatlarni balki birinchi galda onaga, onajonlarimizga bo'lgan mehr-muhabbatimizni, samimiy munosabatimizni, batamom o'zgartirib yubordi. Mustaqillik tufayli o'zbek onalari yuksak qadr topdi, desak mubolag'a bo'lmaydi. Onalar jamiyatning ijtimoiy kuchiga aylandi. Muhtaram Prezidentimiz Islom Karimov iborasi bilan aytganda: "Onalarning obro'-e'tiborini jiddiy ravishda oshirish, ularning mehnatini, jismoniy sog'lom, ma'naviy boy hamda axloqan pok yosh avlodni tarbiyalashdagi xizmatini munosib baholashimiz kerak. Ona to'g'risida, uning farzandi to'g'risida g'amxo'rlik qilish davlatimizning muqaddas burchidir." Mamlakatimizning mustaqillik maydonidagi "Mustaqillik va ezgulik" monumentida quyoshday porlab turgan "Baxtiyor ona" haykali yuqorida aytilgan hayotiy fikrlarning amaldagi yorqin namunasidir.

**Xulosa:** Onaning tarbiya maskani zararga yo'liqsa, nasllarda o'nnganmaydigan yaralar ochiladi, onani yo'qotgan jamiyat kelajagini yo'qotadi. Farzandning ilk tarbiya makoni onaning ko'ksidir. Har yurak urishida go'dagiga bo'lgan mehr mavjlanar ekan, u onasi bilan birgalikda sekin – asta tarbiya topa boradi. Afsuslar bilan aytishimiz mumkinki, ishlaydigan ona farzandi bilan to'liq shug'ullana olmaydi. Vaholanki, uning o'zi farzandining kelajagi uchun ishlashini davo qiladi. Aslida uning farzandidan ayro qolgan har bir daqiqasi xuddi bir yilni qo'ldan boy bergandek ahamiyatlidir. Farzand endi onaning emas, boquvchisining, o'qituvchisining yonida ulg'ayotgan bir xulq bilan katta bo'lmoqda. Maqsadimiz enagalarni yoki o'qituvchilarni qoralash emas. Aytmoqchi bo'lganimiz, agar enaga yoki o'qituvchi yaxshi axloq egasi bo'lmasa, u bolada o'z o'zini qoldiradi. Buni esa hechqaysi ona istamasligi aniq. Bungungi kun onalarini bu qiyin vaziyatdan xalos qilish zarur. Onalar bolalarining go'zal tarbiya olishi va sog'lom kelajaglari uchun o'zlarida ishlash majburliyatini his qilmasligi lozim. Gohida hayotda boshimizga tushgan turli musibatlar sababli ona bolalarini tashlab, ishlashga majbur bo'lishi mumkin. Faqat turmush o'rtog'ining



maoshi yetarli bo'lsa-da, turli fenimistik qarashlar bilan " O'z kuchi bilan, uddaburon va ishbilarmon ayol " kabi so'zlarga uchib, bolalarini bog'chalarga tashlab qo'ymasinlar. Hech qachon bolalaringizni bu yoshda qaytib topolmaysiz, bag'ringizga bosib erkalay olmaysiz, o'z ko'zlaringiz bilan bir gul kabi ulg'aytira olmaysiz. Bu lahzalar takrorlanmasdir.

Ish bilarmon ayollar uchun bu asarda olishi kerak bo'lgan juda ko'p dars bor!

Uch pullik dunyo manfaatlariga erishaman deb, bolalaringizni begona qo'llarga topshirmang. Kareyra yarataman deb, uning izidan quvib, bolangizning haqqi bo'lgan vaqtlarni o'z hislarimizga qurbon qilmang. Farzandlaringizni sog'lom va baxtior ulg'ayishini sotib oladigan hech qanday pul, hech qanday boylik bu dunyoda yo'q.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. Olim yetishtirgan onalar Murat Tosun hikoya 1-9
2. Murat Tosun Onalar 120-220
3. <https://saviya.uz/ijod/publitsistika/ona-sayyorasi/>
4. <https://asaxiy.uz/product/knigi/badiy-adabiyot/murat-tosun-olim-etishtirgan-onalar?language=uzl>
5. <http://e-yoshlar.uz/uz/work/view?id=309>
6. <https://naqshband.uz/makolalar/ona-buyuk-zot>
7. <https://askinfo.uz/1865/ona-buyuk-zot-haqida>